MUSTAFO CHO'QAY MAQOLALARINING TURKISTON TARIXINI O'RGANISHDAGI AHAMIYATI. "OQ VA QIZIL" NOMLI MAQOLASI MISOLIDA

Jo'rayeva Nigora Avazjon qizi
Farg'ona davlat universiteti Tarix fakulteti magistranti
mirzaodilovanigora1@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mustafo Cho'qayning faoliyatiga to'htalib o'tiladi va uning maqolarini Turkiston tarixining madaniy, iqtisodiy, siyosiy jabhalarini o'rganishdagi o'rni haqida so'z yuritiladi. Mustafo Cho'qayning Germaniyada 1929-1939-yillari tashkil etgan "Yosh Turkiston" jurnali faoliyatiga nazar va uning bu jurnal uchun yozgan maqolalarini tarihiy ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Mustafo Cho'qay, "Yosh Turkiston", madaniy hayot, Turkiston, sovetlar, chor hukumat, Turkiston muhtoriyati, jadidlar, "Yangi Turkiston".

Kirish

Yaqin yillarda Jadidchilik harakati namoyondalarining pok shanini oqlash va ularning tariximizdagi ro'lini to'la namoyish etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 22-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi "Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi" va hududlardagi oliy ta'lim muassasalari tuzilmasida "Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeylari" ni tashkil etish chora-tadbirlari tog'risidagi 936-son qarori hamda 2023-yil 22-dekabrda Toshkentda o'tkazilgan "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" nomli konfresiyada Shavkat Mirziyoyev: "Jadidlar g'oyasi — Yangi O'zbekiston strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohang. Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur" [1] ruknidagi nuqtqi va sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Mustafo Cho'qay 1886, Oqmachit, Qozog'istonda tug'ilgan. Turkiston mustaqilligi uchun kurashgan, Turkiston muxtoriyati hukumatining Bosh vaziri. Otasi Cho'qaybey To'rg'ay dodxoh o'g'li volost boshlig'i edi. Mustafo Cho'qay boshlang'ich ma'lumotni Oqmachitda olgach, Toshkentdagi rus gimnaziyasida o'qidi Peterburg universitetining huquq fakultetini tugatdi. Rossiya 4-Davlat dumasining musulmonlar fraksi-yasida Turkiston ishlari bo'yicha kotib bo'lib ishladi. Keyinchalik Muvaqqat hukumat Bosh vaziri A. F. Kerenskiy boshchiligidagi komissiya tarkibida Turkistonda bo'ldi. 1917-yil aprelda Petrograddan Toshkentga qaytdi va siyosiy voqealar ichida bo'ldi. Turkiston o'lkasi musulmonlari Markaziy Sho'rosi raisi, "Birlik tug'i" gazetasining muharriri. Turkiston muxtoriyati hukumatining tashqi ishlar vazi. Muxtoriyat qizil askarlar tomonidan tugatilgach, Mustafo Cho'qay Toshkentga kelib, bolsheviklardan yashirindi. Keyin Tiflisda musulmonlar uchun "Yangi dunyo", "Shafaq" gazetalarni chiqardi [9].

1919-yil fevralda u Yevropa davlatlariga maxsus memorandum bilan murojaat qilib, Turkistondagi istiqlolchilar kurashini qo‘llab-quvvatlashga, bolshevikcha rejimni ag‘darishga chaqirdi. Mustafo Cho‘qay muhojirlikda yashab, turli xalqaro anjumanlarda ishtirok etdi, matbuotda maqolalari bilan qatnashib turdi. Jumladan, “Turkistondagi milliy kurash”(Parij, 1923) maqolasida o‘lkaning mustaqillik yo‘lidagi vazifalarini ko‘rsatib berdi. “Turkistondagi bosmachilik harakati” (London, 1928) asarida bu harakat milliy istiqlol kurashi ekanligini ta’kidlaydi[2].

Mustafo Cho‘qay 1929-1939-yillar davomida Germaniyada “Yosh Turkiston” jurnalining bosh muharri vazifasi faoliyat olib borib,ushbu jurnal uchun Turkistonning mdaniy, iqtisodiy hayotiga doir maqolalar yozadi, bundan tashqari Turkiyada 1929-1931-yillar davomida “Yangi Turkiston” jurnali faoliyatiga ham beovista maqolalar yozadi. Bunday maqolalardan biri “Oq va Qizil’nomli Turkiston madaniy hayotiga doir maqola edi. Quyida ushbu maqola haqida yozdik.

Turkiston gazetalarining mahalliy bo‘limiga qarashli ikki kichik holat, bugun Turkistondagi siyosiy vaziyatni uzundan uzoq maqolalardan ko‘ra ko‘proq ochiq oydin ko‘rsatdi.

Birinchi holat: Farg‘ona to‘qimachilik fabrikasida ikki Rus ishchisi, O‘zbek turkchasini o‘rganishni hohlashmaydi va bu Rus ishchilari ikki uch yildan keyin bu yerda (ya’ni Turkistonda) O‘zbek turk tili degan narsa qolmaydi deya xitob qilganmishlar[3]

Ikkinchi holat: Turkistondagi ishchi politexnikalarida faoliyat olib boruvchi Yusufjon isimli bir Turkistonlik Komsomol, paxta kompaniyasi ustida munozara olib borilar ekan, “Bizning paxta maslasi bilan band bo‘lishimizni yoki bo‘lmasligimizning hich bir ahamiyati yo‘qdir. Ruslarning boshqacha sotsializm qurishga imkon yo‘q” dedi[3].

Rus ishchilari va Turkiston komsomoli, o‘z qarashlarini Sovetlar siyosatining asosiga bog‘laganlar. Milliy madaniyatning yuksalishi va sotsializmni qurish masalasi, Sovet Ittifoqi siyosatining milliy masala mavzusida asosini tashkil etadi. Milliy madaniyatning asosi milli tildir. Eski Rossiya, tilimizning rivojlanishiga izin bermadi. U davrda bizning bir milly matbuotga ega bo‘lishimizga ham haqqimiz yo‘q edi. Toshkentdagi Rus mahalliy maktablariga o‘tuvchi kadrlar tayyorlagan, islom dunyosiga va xususan Turk millatiga dushman sifatida tanilgan missioner Nikolay Ostroumov bosh mudirligi ostidagi o‘qtuvchilar maktabida bizning tilimiz o‘qitilmas edi. Butun eski idoralarnin faoliyati ham o‘qib, ham yoza oladiga tarjimonlarga bog‘lanib qoladi. Shu sababdan Chor Rossiyasining yarim yuz yillik hokimyati davrida Turkistonga hechqanday shaklda madaniy oqim kirmadi. Hatto madaniy sohada mamlakatimiz, davrning talabi bilan orqaga qaytadi[5].

Turkistonliklar orasida qochish yo‘llari bilan Rossiyaning turli universitetlarida yoki taxnika maktablarida ta’lim olganlar ham o‘z turk tilizini tom ma’noda bilmaydilar, ko‘pchiligi esa umuman bilmaslar. Shuing uchun ham ta’lim olgan Turkistonliklar,

xalqimizning extiyojlariga va talablariga monand tarzda hizmat qilmadilar, ummuman olganda xalqimiz uchun faydalari tegmadi.

Shu sababdan ham biz bu vaxshiy Chor Rossiyasi mozori tepasida turib unga la'natlar aytishimiz kerak aslida. Shu bilan birgalikda bu chirkin Rossiyani turli ranglarga bo'yab, Turkistonga madaniyat olib kirgan bir davlat sifatida ko'rsatishni istaganlarga ham la'nat aytishimiz kerak. Bolsheviklar, Turkistonda dominantlikni ikkinchi davrini olib bormoqda deya hisoblasak bo'ladi. Ular eski Rossiya tomonidan ishg'ol etilgan boshqa o'lkalar kabi, Turkistonning ham Rossiyadan alohida bo'lishi haqida so'z aytib o'tadilar.

Sal keyinroq esa Lenin Turkistonliklarning o'z vatanlaridagi boshqaruvlarida, aholi bilan mutanosib ravishda boshqaruvchilarga ega bo'lishi haqida aytib o'tadi. Fqat Turkistonda 100 Turkistonlikka, 2-3 ruslarning qarshi chiqayotganini ko'rgan Rus bolsheviklari, o'zlarining boshqaruvini mahalliylashtirish haqidagi maqsadlarini darhol o'zgartirdilar [7]. Tez orada diniy atamalar uydirilib, mahalliylashtirilsin deyilgan vaqtda, boshqaruv Turkistonliklarga emas (Alloh o'zi kechirsin) Turkiston boshqaruvi va Turkiston turkchasini biladigan ruslarga topshirilsin shaklida tushunilishi kerak deya qaror berdilar [3].

Eski Rossiyaning ruslashtirish siyosatining boshqacha ko'rinishidan boshqa hechnarsa emas edi bu o'yinlar. Lenining sotsializm-internatsionalizm asoslarini qurishi uchun, Rus Bolsheviklari yangi madaniy shakldagi uydurmalarni o'ylab topadilar. Ruslarning uydurma madaniyati "ko'rinishi jihatdan milliy, ma'no jihatdan proletardir" shaklida edi. Holbuki asl madaniyat bittadir. Uni shakli va ma'no jihatdan bo'lish mumkin emas. Har bir madaniyat avvalo o'z xalqi ichida qadr topmog'i lozim.

Turkistonda har xil o'ziga xos xususiyatiga ega bo'lgan maktablar mavjuddir. Judda ko'plab shaklda gazeta va jurnallar chop etib boriladi. Maktablarda bizning tilimiz esa o'qtilmaydi. Har xil turli ilmiy yangiliklar rus tilida o'qtiladi. Bu holatga qarab turib, bu maktablar va gazetallarni milliy deya olamizmi? Bular bizning madaniyatimizni keng ommaga yoyuvchi vosita deya olamizmi? Yo'q. Yuz martallab yo'q. Bu maktablar va bu matbuotlar Turkistonda rus madaniyatini va ruslarning g'oyasini singdirishga qaratilgan vositalardan boshqa hech narsa emas. Shu sababdan bizning milliy madaniyatimiz xususida, kechagi Chor Rossiyasi va bugungi Sovet proletar jamiyati o'rtasida hech qanday farq yo'qdir. Buni ko'rib bilib turgan oddiy rus ishchisi ham ochiqdan –ochiq, ikki- uch yildan so'ng Turkiston turkchasi qolmaydi deya aytaolyapdi.Turkiston Turk bo'lib qoladi. Uni yengishga hechkimning kuchi yetmaydi. Biz bunga aminmiz.

Davlat tashkilotlarini milliylashtirish maqsadida o'tkazilgan Rus siyosatidan so'ng bizning tilimiz ikkinchi darajali tilga aylanib qoldi. Shunday qilib bizning tuk tilimzi buyuk Rus madaniyatini yoyishga hizmat qiluvchi bir taxnik vosita sifatida qolmoqda. Bu holatda esa haqiqatdan ham farg'ona tekstil fabrikasi ishchilar haqlidir. Lenin, Pushkin, Turgenov va Tolstoylarni yaratgan buyuk rus tili oldida bo'yin egganli kabi qolgan Bolsheviklarni ham o'zi kabi rus tili oldida bo'yin egishga da'vat etti[3].

Pushkin o‘zi aristokrat sinfdan bo‘lib, podishoh xoss zobitlari polkida hizmat qilgan. Turgenov esa yer sohibi bir asilzoda, Tolstoy ham mulk sohibi “Graf” edi. Bu buyuk rus yozuvchilari va shoirlarining qoldirgan madaniy meroslari (Adabiyot sohasida) butunlay milliylik bilan yo‘g‘rilgan bo‘lib, ularning birortasida proletarcha tushuncha yo‘q. Bizning Turkistonda esa eng iqtidorli yozuvchilarimiz, tilimizni boyitmoq va milly madaniy boyligimizni orttirishlariga umid bog‘laganimizda, shoir va yozuvchilarimiz jim bo‘lishga va o‘z tillaridan foydalanmaslikka majbur etiladi[5].

Buning sababi, ularning yozganlari va fikirlari Maskovaning madaniy tushunchasi “ko‘rinish jihatdan milliy, ma’no jihatdan proletar” formulasiga uyg‘un tushmasligida edi. Masalan Ahmad Boytursun va Cho‘lpon milliy adabiyotimizning eng peshqadam vakillaridandir. Bularning asarlarida biz, rus zulmi ostida ezilgan oan tilimiz va adabiyotimizning o‘lmas va yo‘qolib ketmas yulduzlarini ko‘ramiz. Hozir Ahmad Boytursun va Cho‘lponlar qayerlarda? Nima uchun ular jim bo‘lishga mahkum etildi. Nima uchun rus maktablariga tayyorlangan rus madaniyatiga doir kitoblar Pushkinsiz, Turgenovsiz yoki Tolstoysiz chiqarilmaydi. Nima uchun bizning xalqimiz o‘zining Boytursunlarini, Cho‘lponlarini o‘qimaydi?

Chunki Maskova sotsializmi va Sovet internatsionalizimi shunday bo‘lishini xohlamoqda. Bir savol paydo bo‘ladi. Sotsializm aslida nima degani? Sotsializm millatlararo bir ideologiyaadir. Butun millatlarning tengligi taminlanmagunicha sotsializmndan so‘z ochilmasligi kerak. Pushkin va Turgenovlar burjua, kopitalist va asilzoda bo‘lsalar ham rus millatidan bo‘lganligi uchun vatanparvar qilib ko‘rsatiladi. Bizning Cho‘lponimiz va Ahmadimiz esa, Turkiston turklaridan bo‘lganligi uchun, Turkiston turklariga dushman sifatida ko‘rsatiladi. Bu vaziyatni Rus maktablarida o‘qigan Turkistonlik Komsomol (yosh komunistlar) judda yaxshi tushungan va “Ruslar Turkistonda ekan hechqanday sotsializm qurib bo‘lmaydi” deganlar.

Bu judayam to‘g‘ri. Rus Bolsheviklari sotsializm nomi ostida, ikki- uch yilda muqaddas ona tilimizni tarihiy ildizlari bilan yo‘qotishni reja qilgan. Sovet maktablarida ta’lim olayotgan Turkistonlik yosh komunistlar, bu vaziyatbi juda to‘g‘ri va ochiq-oydin ko‘raoldilar va “Bugungi Turkistonda sotsializm bo‘lmaydi” deganlar. Bir vaqtlar Lenin, ba’zi komunistlarni sholg‘omga o‘xshatadi. “Ular sholg‘om kabidirlar, sirtlari qizil ichlari oq” degan edi [8]. Huddi shunday milliy masalaning yechimi ham Leninning rejasida aynan sholg‘om kabidir. Tashqi tomondan inqilobchi va internatsionalchi, faqt ich ko‘rinishi esa oppoqdir. Uning oqligi o‘zining “Qora siyosati” bilan yashirilgan edi. Bugungi Bolshevik Ruslarining oqligi, qizil qalampir kabidir… farqi esa shundan iboratdir.Bundan tashqari ham yuqorida sanab o‘tganimizdek, yana bir qancha maqolalar ushbu mavzuga aloqador yozilgan.

Xulosa qilib aytganda Turkiston madaniyati eng qadimdan shakillanib kelgan madaniyatlardan biri va uni asrash har bir Turkistonlik uchun burchdir. Chor Rossiyasi davrida bo‘ladimi, Sovet hukumati davridami Turkistonlik ziyolilar bu burchni ortig‘i bilan bajara oldilar deya olamiz. Kuchlar soni jihatdan ustun bo‘lmasalarda ularga

singdirishga urinilgan "yaxshiroq madaniyat" ni qabul qilmadilar va komunistalar talqinidagi "ular o'z madaniyatlaridan voz kechib bo'lishgan faqat buni oshkor etishga uyalishmoqda" kabi jumlalar xato ekanligini ko'p marotaba isbotlab berishdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017

2. A.M. Mahmudov. Usmonxo'ja Po'latxo'jayevning ijtimoiy-siyosiy faoliyati. – Farg'ona: 2022. – B. 29.

3. II.8.Andican Ahat. Cedidizm'den Bağımsızlığa Hariçte Türkistan Mücadelesi. Istanbul: 2003. – S. 270

4. Boymirza Hayid. Komunistik Imperializm qarshisida Turkiston. – Istanbul: 1962. – B. 118.

5. Yeni Turkistan Dergisi. №16, Kasim, 1928. – S. 17-21.

6. Yaş Türkistanlı. Bugünki Türkistan Yaşlıgı . – Berlin: Yaş Türkistan, 1931. –S. 15–19.

7. N.A.Mirzaodilova. Xorijdagi O'zbeklarning matbuoti. – bakalavr darajasini olish uchun. 2024. – B. 54.

8. .https://turkistanilibrary.com/tr/content/turkistanin-bagimsizligina-hizmet-eden-yeni-turkistan-dan-secilmis-makaleler-1927-1931

9. www.wikipedia.org

10. www.arxiv.uz